

NAVOIY HIKMATLARI-UMRBOQIY XAZINA

Karimova Hafiza Yusupboyevna

Karimova.hafiza@gmail.com

*Xiva shahridagi Ogahiy ijod maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va alloma Alisher Navoiyning hikmatlari va ularning umrboqiyliigi, teran va serma'no misralaridagi umuminsoniy g'oyalar tarannumi aks ettirilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Hikmatli so'zlar, saxovat, mardlik, adolat, rido, haqgo'ylik, ibratli, adabiy, insoniy tuyg'ular, sipoh, tama, barhayot, umrboqiy sartlar.

Sharq xalqlari qadim-qadimdan maqol, matallar, teran ma'noli hikmatli so'zlar, ibratli rivoyatlarga moyilliklari bilan dunyo xalqlari orasida alohida ajralib turadi. Ayniqsa, hikmatli so'zlar biz uchun asrlar sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir.

Rivoyat qilishlaricha, Alloh taolo Luqmoni Hakimdan: "Payg'ambarlik beraymi yo hikmat?" - deb so'raganlarida Luqmoni Hakim hikmatni tanlagan ekanlar. Shundan keyin Xudo unga shunchalik ko'p hikmat bergan ekanki, hatto payg'ambarlar ham insonlarni ezgulikka chorlashda uning pand-nasihatlariidan unumli foydalangan ekanlar. Shuning uchun ham xalqimiz orasidagi hikmatli so'zlarning salmog'i juda ko'p. Ayniqsa, Alisher Navoiy hikmatlari barhayotligi, azaliy va abadiy mavzularni yuksak mahorat bilan qalamga olinganligi bilan ahamiyatlidir. Navoiy qoldirgan merosni ulkan dengizga, purma'no hikmatlarini esa shu dengiz tubidagi bebaho marjonga o'xshatish mumkin.

Navoiy hikmatlarida muhabbat, vafo, do'stlik, insonparvarlik, halollik, mardlik, saxovat, adolat, olijanoblik kabi insoniy fazilatlar ulug'langan bo'lsa, yomonlik, zulm, nohaqlik, e'tiqodsizlik, bevafoqlik, dilozorlik, hasad, riyo singari illatlar keskin tanqid qilingan.

Xassos shoirning ezgulikni ulug'lash, yovuzlikni qoralashga yo'naltirilgan hikmatlari hamma davrlarda ham jamiyat manfaatlariga birday xizmat qilib kelmoqda. Ijodkor hikmatlarining bugungi kundagi ahamiyati, yosh avlod kamolotidagi o'rni nihoyatda beqiyos. Navoiyning o'tkir nigohi faqat o'z davrini emas, balki kelajakni ham ko'ra olgan. Shu sababdan shoir hikmatlari abadiyatga daxldor. Fikrimiz isboti sifatida ijodkorning quyidagi purma'no hikmatini keltirsak:

Bahrdin qatrag'a ta'zi ila tahsin ko'rdim,
Mehrdin zarrag'a e'zoz ila ehson topdim.

Ya'ni, dengizning tomchiga ta'zim ila tahsin qilganini ko'rdim, quyoshning zarraga e'zoz va ehson ko'rsatganiga guvoh bo'ldim, deya insonlarni kamtarin bo'lishga, adolat va insofga chorlaganiga guvoh bo'lamiz. Quyidagi hikmatida esa Navoiy haq so'zni aytish, rostgo'ylik inson uchun chin bezak ekanligini ta'kidlaydi:

So'zda Navoiy ne desang chin degil,
Rost navo nag'maga tahsin degil.
Rostdur ulkim, nazari to'g'ridur,
Kim iligi egridur- o'g'ri erur.

Agar so'z go'zallik bezagi bilan bezanmagan bo'lsa, unga chinlik bezagi yetarlidir. Yolg'onchining gapi qanchalik chiroyli bo'lsa, shunchalik qabihdir. Chin so'z qanchalik betakalluf bo'lmasin so'zlovchi uchun taassuf yo'qdur. Gul libosi yirtiq bo'lsa ham ziyonsiz, sadaf xunuk bo'lsa ham inju uchun nuqsonsiz.

Shoirning umrboqiy hikmatlaridan yana biriga diqqat qilsak:

Sen agar tarki tama qilsang, ulug' ishdir bukim,
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf.

O'z fikrlarini qarama-qarshi qo'yish - tazod san'ati orqali ifodalagan shoir ushbu hikmatida quyidagi fikrlarni bayon etadi:

“Agar sen tama qilishni tark aylasang, bu ishing ulug' ish bo'ladi. Tamaga duchor olam ahli bir taraf va sen bir taraf bo'lib, ulug'likka erishasan”. Tama barcha zamonlarda jamiyat taraqqiyotiga keskin to'sqinlik qiluvchi illatdir. Ayniqsa, bugungi zamonamizda ribo atalmish bu salbiy illat nafaqat insonlar qalbida insof va diyonatining yo'qolishiga, balki harom va halolning farqiga yetmaydiganlar ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Korrupsiya avj olgan jamiyatda yuksalish, rivojlanish qanchalik orqaga ketishiga xalqimiz tarixi guvoh. Bugun butun dunyoni tashvishga solayotgan tamagirlik muammosini Navoiy bobomiz bundan necha asrlar ilgari o'z hikmatlarida keskin tanqid qilganlar. Yoki yana bir shu mazmundagi hikmatga e'tibor qaratsak:

Mumkin emas qismat o'lg'on rizqning afzunlig'i
Bas haloyiq minnatin to bo'lg'ay imkon chekmagil.

Mazmuni: Qismat qilingan yoki Alloh ato etgan rizqni ko'paytirish mumkin emas. Shunday ekan, odamlarga iloji boricha tama qo'lini cho'zma.

Yuqoridagi hikmatlarida ham Hazrat Navoiy tamagirlik qilish mantiqsiz ishligini va inson faqat Alloh nasib etgan rizqqagina erisha olishi, undan ortig'iga erisha olmasligini ta'kidlaganlar.

Hazrat Navoiyning yana bir hikmatida tinchlik, osoyishtalikning eng ulug' ne'mat ekanligi aytiladi:

Davron aro kimsa ranj paymudalig'i,
Bushmas gar emas farog' kambudalig'i
Noamnliq o'ldi xalq farsudalig'i

Amn ichra bo‘lur maosh osudalig‘i.

Mazmuni: Bu dunyoda tinch-xotirjam bo‘lmagan kishi ranj-u azobdan xoli bo‘lolmaydi. Odamlarning g‘am-tashvishiga giriftorligi osoyishtalikning yo‘qligidan. Osoyishtalik bo‘lgan joyda turmush osuda kechadi.

“Xalq tinch va osuda bo‘lsin desang, yurt mudofaasini mustahkam qil”, -deydi Navoiy yana bir hikmatida. Mudofaada xizmat qilayotgan askarlarga munosabat haqida esa shunday deydi:

Sipoh xotirin lutf ila shod qil,

Raiyatni adl aylab obod qil.

Askarlar ko‘nglini marhamat bilan sevintir, xalqni odillik bilan quvontir.

Sipohi qachon shohga to‘libdurur,

Aduvsiga shak yo‘qki, g‘olibdurur.

Askarlar va umuman harbiy xodimlar shohning adolatidan, mehridan, siyosatidan ko‘ngli to‘q bo‘lsa, u shohning o‘z dushmanlarini yengishiga hech shubha yo‘q.

Darhaqiqat, yurtimizda Vatan himoyasiga qaratilayotgan e‘tibor, harbiy soha vakillariga yaratilayotgan sharoitlar va pirovard natijada yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, osudalik Navoiy hikmatlarining qanchalik haqiqat ekanligidan darak beradi. Oradan qancha davrlar o‘tsa-da bu hikmatlar xuddi kechagina yozilgandek o‘z zamonaviyligini aslo yo‘qotmaydi. Buyuk mutafakkir o‘z hikmatlarini avlodlarga meros qoldirarkan:

Agar hikmatga bo‘lsa iltifoting,

Ki bo‘lsun, Nuh umricha hayoting,

deya duo qilib qoladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergash Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent. 2006-yil
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent, 2009-yil
3. Tohir Malik. Odamiylik mulki. Toshkent, 2017-yil
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Nasriy bayon muallifi-inoyat maxsumov
5. Alibek Rustamov. So‘z haqida so‘z. Toshkent, 2006-yil
6. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma. Toshkent, 1990-yil